

Tajibayev Muxiddin Abdurashidovich
Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti v.b. (PhD)

**TA'LIMNING SAMARADORLIGI VA JOZIBASI -PEDAGOG
HODIMLARINING ILMIY SALOHIYATI, MALAKASI VA MAHORATI
BILAN BOG'LIQDIR.**

Annotatsiya: Pedagogik mahorat har bir pedagog o'z kasbiy faoliyati davomida izchil shakllantirib boradigan jayondir. Ta'limning samaradorligi va jozibasi shu jarayonda faoliyat yuritayotgan pedagog hodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va mahorati bilan belgilanadi. Bugungi kunda pedagogik mahoratga ega bo'lish talabi faqatgina o'qituvchilarga emas, shu bilan birga jamoa bilan, ijtimoiy sub'ektlar bilan ishlaydigan har qanday mutaxassislariga ham qo'yilmoqda. Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahorat, kasbiy faoliyat, talimda innovatsiyalar, metodika, ta'lim texnologiyalari, pedagogik qobiliyat.

**Tajibayev Muxiddin Abdurashidovich Jizzakh polytechnic institute,
Social Department of Sciences " associate professor etc. (PhD)**

**THE EFFICIENCY AND ATTRACTIVENESS OF EDUCATION ARE
RELATIVE TO THE SCIENTIFIC COMPETENCE, QUALIFICATIONS,
AND SKILLS OF TEACHING STAFF**

Abstract: pedagogical skills are a skill that every teacher consistently develops throughout his professional career. The effectiveness and attractiveness of education are determined by the scientific potential, qualifications and skills of the pedagogical staff involved in this process. Today, the requirement to have pedagogical skills is imposed not only on teachers, but also on any specialists

working with the team and social subjects. The article highlights the importance of pedagogical skills in the educational process.

Keywords: pedagogical skills, professional activity, innovations in education, methodology, educational technologies, pedagogical skills.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Ta'limning samaradorligi va jozibasi shu jarayonda faoliyat yuritayotgan pedagog hodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va mahorati bilan belgilanadi. O'qituvchi kasbi sharafligi va o'ziga xos murakkab bo'lib, pedagogik mahorat fanini esa ilg'or o'qituvchi va olimlarning amaliy va nazariy bilimlarining yig'indisi desak adashmaymiz. Sharq pedagogikasi va pedagogik mahorati ming yillik tarixga ega bo'lib, nazm mulking sultoni A.Navoiy, A.Jomiy, Koshifiy va boshqalarning asarlarida nutq, notiqlik san'ati, madaniyati haqida so'z va uning inson ruhiyatiga ta'siri haqida juda ko'p qimmatli hamda durdona fikrlar mavjud.

Mahorat-muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Pedagogik mahorat-pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Pedagogik mahorat tushunchasiga turli adbiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan. «Pedagogik ensiklopediyada» quyidayicha izohlangan: «O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutahassis.».

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tadigan xususiyat emas, balki tinimsiz izlanish, ham ilmiy, ham amaliy shakldagi ijodiy mehnat mahsulidir. Bu ko'p qirrali pedagogik faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolip shaklida qolib ketadigan ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

O'qituvchining pedagogik mahorati mazmunini shunday izohlash mumkin:

•*Madaniyatning yuqori darajasi, bilindonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatgichi. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olishi. O'quv tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.*

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir- biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

•*Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi, Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilishi, Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish, Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.*

Pedagogik mahoratning yordamchi tarkibiy qismlari:

•*Nutq malakalari, Tushunarli ta'sirchan fikr va his-tuyg'ularni so'zda aniq ifodalash, Mimika va pantomimika, Ma'noli qarash, Hissiy psixik holat, Kayfiyat yoki istehzoli tabassum, Savodli gapirish, Rag'batlantiruvchi munosabat, Ijodiy jiddiylik.*

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. O'quv chilarda ijtimoiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash zarur. Bu pedagog kadrlarimiz oldida turgan eng muhim vazifadir.

Pedagogning ijodiy potentsiali uning o'z ijodkorlik sifatlarini shakllantirishga intilishida, pedagogik odobining namoyon bo'lishida, qobiliyati va kasbiy

malakasini oshirishida, kutilmagan vaziyatlarda topqirlik qila olishida, O'quv chi va talabalarni komillik sari mohirlik bilan etaklay olishida ko'rinadi.

Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay, biri yuqori, biri o'rta va biri quyi darajadan iboratdir. Faqat aqli zaif insonlarda qobiliyatni uchrata olmaymiz. Muvafaqqiyatli ishlash uchun har bir pedagog pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'z mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, qobiliyatni rivojlantirish uchun esa layoqat, zexn, iste'dod ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat ham bo'lishi zarur.

Pedagogik texnika-bu o'qituvchi faoliyatining (xatti-harakatlarining) tashkiliy shakli. Pedagogik texnika ikkita katta guruhda farqlanadi:

o'z-o'zini boshqarish malakasi (gavdasini, gavda a'zolarini boshqarish malakasi), hissiy holatini boshqara olishi, nutq texnikasi va madaniyatini o'zlashtirishi; bu asosan didaktik malaka va ko'nikmalar, tashkilotchilik, kommunikasiya, dars konstruksiyasi va boshqa qobiliyatlarning majmuasidan tashkil topganligi.

O'qituvchining ijodkorligi nafaqat dars jarayonlarida qolaversa, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ijodiy to'garaklar faoliyatida, ma'naviy-marifiy tadbirlarda takomillashib boradi. Bu ayniqsa ijtimoiy- gumanitar fan sohasida faoliyat yuritayongan pedagoglarning mahoratida o'z aksini topadi. Masalan, Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish – sinfdan tashqari ishlarning muhim tashkiliy shakli bo'lib, ularning asosiy vazifasida ilmiy ma'lumot berishdan tashqari harxil san'at vositalari (badiiy o'qish, musiqa, ashula, video rolik) yordamida O'quv chilarga ibratli tarixiy voqyealarlarning mazmuni, mohiyati va ahamiyatini tushuntirish va ulardan ibrat olishni uqtirishdan iborat. O'qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, ulkan natijalarga erishadi, o'z ishining natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkor bo'ladi.

Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Pedagogik mahoratni shakllanishi pedagogik yo'nalashdagi Oliy Ta'lim muassasalari O'quv -ilmiy faoliyatidagi asosiy jihatlardan biridir. Bo'lajak pedagoglarni o'z kasbiy mahoratlarini talabalik davridanoq rivojlantirib borishga yo'naltirish lozim. Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim uchun eng muhim masalalardan biri - talabalarda pedagogik kompetensiyani shakllantirishdir. Shu munosabat bilan pedagogik kompetensiya nimadan iboratligini ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish zarur. "Kompetentlik" (ingl. "competence" - "qobiliyat") - faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni anglatadi. Pedagogik kompetensiyaga nima tegishli ekanligini, uning tarkibiy qismi sifatida uning mohiyatini ochib berish. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qituvchining pedagogik qobiliyatga egaligiga bog'liq. Manbalardan birida "qobiliyat" tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat; narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilish layoqati.

Bugungi kunda pedagogik mahoratga ega bo'lish talabi faqatgina o'qituvchilarga emas, shu bilan birga jamoa bilan, ijtimoiy sub'ektlar bilan ishlaydigan har qanday mutaxassislariga ham qo'yilmoqda. Binobarin, tirik mavjud bo'lgan shaxslarga ta'sir ko'rsatish, ularni boshqarish oson kechmaydi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning muayyan darajada pedagogik mahoratga ega bo'lishlari zarurligi taqozo etmoqda.

Xulosa o'rnida shu ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar o'z ustida tinimsiz ishlashi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalaridan samarali foydalana olishi va ularni dars jarayonlariga tadbiiq eta olishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent 2011-yil.
2. Omonov H. T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogi mahorat. Darslik. Toshkent 2009-yil.
3. Xoliqov I. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish. Pedagogik mahorat. 1-son (2022-yil, fevral)
4. Erkaboyeva N. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2020-yil.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003.-104 b.